PSEVDOBULBAR DIZARTIRIYA: SABABLARI, KLINIK KO‘RINISHLARI VA KORREKSION YONDASHUVLAR

Iminjonova Moxichexra Alimardon qizi
Andijon davlat pedagogika instituti Maktabgacha ta’lim fakulteti
Maxsus pedagogika:logopediya yo‘nalishi 401-guruh talabasi
iminjonovamoxichexra@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada psevdobulbar dizartiriya tushunchasi, uning kelib chiqishiga sabab bo‘ladigan nevrologik omillar, klinik belgilari hamda nutq apparatiga ta’sir etuvchi funksional buzilishlar ilmiy asosda yoritiladi. Shuningdek, logopedik tashxis qo‘yish jarayonidagi mezonlar, korreksion ishlarning bosqichlari, nutq nafasini rivojlantirish, artikulyatsion mashqlar, fonetik-fonematik tizimni shakllantirishga qaratilgan amaliy metodlar tahlil qilinadi. Maqolada korreksion yondashuvlarning samaradorligini oshirishda differensial diagnostika va individual logopedik dastur tuzishning ahamiyati alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

KALIT SO‘ZLAR: psevdobulbar dizartiriya, markaziy falaj, nutq apparati, klinik ko‘rinishlar, hipertonus, logopedik korreksiya, artikulyatsiya, fonematik eshitish, nutq nafası, reabilitatsiya, nevrologik buzilishlar.

Psevdobulbar dizartiriya markaziy nerv tizimining yuqori motoneyronlari, ya’ni kortikobulbar yo‘llarning ikki tomonlama zararlanishi natijasida yuzaga keladigan og‘ir nutq buzilishi hisoblanadi. Uning klinik belgilarida nutqning spastiklashuvi, artikulyatsion apparat mushaklarining zo‘riqishi, emotsional barqarorlikning buzilishi va patologik reflekslarning paydo bo‘lishi muhim o‘rin tutadi. Ushbu maqolada psevdobulbar dizartiriyaning etiologiyasi, patogenezi, klinik ko‘rinishlari, diagnostika va logopedik korreksiya jarayonlari tizimli tahlil qilinadi.

Psevdobulbar dizartiriya markaziy (yuqori) motoneyron shikastlanishlariga bog‘liq bo‘lib, uning asosiy sababi kortikobulbar yo‘llarning ikki tomonlama zararlanishidir. Bu yo‘llar bosh miya po‘stlog‘idan medulla oblongata darajasidagi bosh miya nervlari yadrolariga impuls uzatadi. Shuning uchun ularning shikastlanishi pastki motoneyronlar intakt bo‘lgan holda nutqning markaziy boshqaruvini buzadi.

Bu holat bulbar dizartiriyadan farqli ravishda mushaklarning atrofiyasi yoki falaji bilan emas, balki ularning spastikligi, zo‘riqishi va psevdoparalitik holatlar bilan namoyon bo‘ladi.

Psevdobulbar dizartiriya quyidagi patologiyalar natijasida rivojlanishi mumkin:

1. Serebrovaskulyar kasalliklar
2. Ikkala yarimshardagi insultlar
3. Miya qon aylanishining surunkali yetishmovchiligi
4. Miya aterosklerozi
5. Travmatik shikastlar
6. Katta maydonli bosh miya jarohatlari
7. Ko‘p o‘choqli kontuziyalar
8. Perinatal gipoksiya
9. Gemorragik insultlar

Psevdobulbar dizartiriyaning rivojlanish mexanizmi markaziy nerv tizimidagi yuqori motoneyronlarning inaktivatsiyasi bilan bog‘liq. Kortikobulbar yo‘llarning ikki tomonlama shikastlanishi natijasida:

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

- mushak tonusi ortadi (spastiklik),
- harakatlar keskin va zo‘riqib bajariladi,
- nutq harakatlari sust, koordinatsiyasi buzilgan,
- patologik reflekslar paydo bo‘ladi.

Bu holatlar artikulyatsiya jarayonining uzluksizligini, nutqning silliqligini va tabiiy fonatsiyani buzadi.

Psevdobulbar dizartiriya quyidagi asosiy klinik belgilar asosida namoyon bo‘ladi.

1. Nutqning o‘zgarishi
2. Nutq spastik, keskin, “qattiq” tembrda.
3. Prosodika buzilgan: monotoniya, intonatsiya yetishmovchiligi.
4. Nutq sekin, zo‘riqib aytiladi.
5. Artikulyatsion harakatlar cheklangan.

Psevdobulbar dizartiriya nutq kamchiligida artikulyatsiya apparati belgilari:

1. Lab, til va yumshoq tanglay mushaklarida taranglik.
2. Atrofiya yo‘q (bulbar shakldan farqi).
3. Harakatlar sekin, koordinatsiyasi pasaygan.
4. Yutish buzilishi

Logopedik terapiya psevdobulbar dizartiriyani yengillashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Korreksion ishlar quyidagi yo‘nalishlarda olib boriladi:

1. Mushak tonusini normallashtirish
2. Bo‘shashtiruvchi artikulyatsion mashqlar
3. Passiv va aktiv massaj
4. Til va lab mushaklarini yumshatuvchi mashqlar
5. Nafas mashqlari
6. Fonatsiya mashqlari
7. Artikulyatsion mashqlar
8. Prosodik ko‘nikmalarni rivojlantirish

Psevdobulbar dizartiriya kompleks davolashni talab qiladi. Jamoaviy yondashuvda quyidagi mutaxassislar ishtirok etadi:nevropatolog, logoped, reabilitolog, psixolog, fizioterapevt.

Psevdobulbar dizartiriya markaziy nerv tizimi zararlanishi natijasida yuzaga keladigan og‘ir nutq buzilishi bo‘lib, nutqiy, artikulyatsion va emotsional funksiyalarni kompleks tarzda izdan chiqaradi. Uni erta tashxislash va logopedik korreksiya yordamida mushak tarangligini kamaytirish, fonatsiya va artikulyatsiyani yaxshilash, prosodik elementlarni rivojlantirish mumkin. Mutaxassislararo hamkorlikda olib borilgan reabilitatsiya jarayoni bemorning hayot sifatini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. **Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони.** 2022–2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида. – Тошкент, 2022 йил 28 январь, ПФ-60-сон. // Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон.
2. **Мўминова Л.Р., Аюпова М.Ю.** Логопедия: Олий ўқув юртлари учун дарслик. – Тошкент: Ўқитувчи, 2013. – 248-256 б.
3. **Шомахмудова Р.С.** Махсус ва инклюзив таълим методикаси. – Тошкент: Ношир, 2021. – 312 б.
4. **Архипова Е.Ф.** Коррекционно-логопедическая работа по преодолению стертой дизартрии у детей. – Москва: Астрель, 2008. – С. 45-60.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.

5. **Визель Т.Г.** Основы нейропсихологии: учебник для студентов вузов. – Москва: В.Секачев, 2021. – 264 с.
6. **Bernthal J.E., Bankson N.W., Flipsen P.** Articulation and Phonological Disorders: Speech Sound Disorders in Children. – Boston: Pearson, 2017. – P. 112-145.
7. **Law J., Plunkett C.C., Stringer H.** Communication interventions for children with severe speech sound disorders: A systematic review // International Journal of Language & Communication Disorders. 2022. Volume 57. Issue 3. – P. 560-580.
8. **Қодирова Ф.У.** Мактабгача ёшдаги болалар нутқини ривожлантиришда оила ҳамкорлигининг педагогик асослари // Замонавий таълим журнали. – Тошкент, 2020. – №4. – Б. 25-30.
9. **SGF Journal.** "Markaziy Osiyoda jamiyat, gender va oila" xalqaro ilmiy jurnali rasmiy sayti // www.sgfjournal.uz (Murojaat sanasi: 20.05.2024).
10. **Lex.uz.** Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси // https://lex.uz/docs/4850317
11. Жўрахўжаев, М. Х. (2022). ИМКОНИЯТИ ЧЕКЛАНГАН БОЛАЛАР УЙДА ЯККА ТАРТИБДАГИ ТАЪЛИМДА ЎҚУВ ЖАРАЁНИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ. *PEDAGOGS jurnali*, *1*(1), 295-298.
12. Jurahojaev, M. K. O. (2022). MECHANISMS TO INCREASE THE EFFICIENCY OF INDIVIDUAL HOME EDUCATION FOR THE DISABLED CHILDREN. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, *2022*(3), 171-180.
13. Jo'raxo'jayev, M. X. Imkoniyati cheklangan bolalarning uyda yakka tartibdagi talimi samaradorligini oshirish mexanizmlari: Pedagogika fanlari boyicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. *Jizzax–2023.–36-bet*.
14 .Jo'raxo'jayev, M. X. (2022). Uyda yakka tartibdagi ta'lim o 'qituvchisining portreti/"Tilni o 'qitish va o 'rganishda XXI asr ko 'nikmalari" III xalqaro anjuman materiallari.

© 2026 London International Monthly Conference on Multidisciplinary Research and Innovation. All Rights Reserved.